

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHQURBONOVA AZIZA BOZOR QIZI**

**O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA DIALOGIK NUTQNING PRAGMATIK  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERAT**

**Termiz – 2025**

UDK: 811.512.133:821.512.133.09-3

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in philological  
sciences**

**Eshqurbonova Aziza Bozor qizi**

О'zbek badiiy matnlarida dialogik nutqning pragmatik tadqiqi.....3

**Эшқурбонова Азиза Бозор қизи**

Прагматическое исследование диалогической речи в узбекских  
художественных текстах.....27

**Eshqurbonova Aziza Bozor qizi**

Pragmatic research of dialogic speech in Uzbek literary texts.... 54

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESHQURBONOVA AZIZA BOZOR QIZI**

**O‘ZBEK BADIY MATNLARIDA DIALOGIK NUTQNING PRAGMATIK  
TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERAT**

**Termiz – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4047 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Termiz davlat universiteti veb-sahifasining [www.tersu.uz](http://www.tersu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Umurqulov Bekpo'lat**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mo'minov Siddiqjon Mirsobirovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Tojiyeva Gulbahor Namozovna**  
filologiya fanlari doktori, professor


**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "10" 03 soat 10<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (179 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" 02 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "26" 02 da 58 raqamli restr bayonnomasi).



**Sh. T. Maxmaraimova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, f.f.d., professor

**Z. B. Umurqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, f.f.d. (PhD), dotsent

**P. O. Bakirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab pragmlingvistika alohida soha sifatida rivojlana boshladi. Matnning kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilish, tilning ifoda imkoniyatlarining kengligini mujassam etuvchi badiiy matn va uni idrok etish jarayoniga pragmlingvistik yondashish dolzarb masalaga aylandi. Muloqot jarayoni va uning nutqiy vaziyat, shaxs omillari bilan bog'liqligi, nutqiy akt nazariyasiga oid tadqiqotlar maydonga keldi. Matn implikaturasi, modallik, baho kategoriyalari, presuppozitsiya va tagma'no masalalariga oid izlanishlarga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

Dunyo tilshunosligida antroposentirik tilshunoslik yo'nalishlari bo'lgan matn pragmlingvistikasi, kognitiv lingvistika, kommunikativ lingvistika, matn lingvistikasi kabi zamonaviy yo'nalishlar doirasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda badiiy matnning mazmunli tarkibiy qismi sanaluvchi dialogik nutq tadqiqi ham dolzarb masalaga aylanib qoldi. Badiiy matnlardagi dialoglarning turlari, ularda nutqiy aktning qo'llanishi va dialogik nutqdagi verbal va noverbal vositalarni tadqiq etish, dialogik nutqning pragmatik xususiyatlarini yoritishda adresant va adresatning munosabatlarini o'rganish matnning pragmatik jihatdan o'rganishdagi muhim masalalarga aylanmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham jahon tilshunosligi yutuq va tajribalariga asoslangan holda tilshunoslikning yangi va zamonaviy sohalariga oid tadqiqotlar miqyosi kengayib bormoqda. Ayniqsa, badiiy matnni pragmlingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish, shaxs, nutqiy vaziyat, kommunikativ strategiya va taktika, baho kategoriyasi kabilarning muallif g'oyasi bilan aloqadorligini tahlil qilish tilning pragmatik xususiyatlarini yoritish imkonini kuchaytiradi. "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"<sup>1</sup>. O'zbek badiiy matnlaridagi dialogik nutqning pragmatik ma'no ifodalovchi lisoniy vositalari, kommunikativ-pragmatik kategoriyalari masalalarini tadqiq etish ham soha rivojiga muhim hissa qo'shishi shubhasizdir.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 12-dekabrda 984-son "Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-60-90-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқенини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" фармони. – Тошкент шаҳри, 2019 йил 2-октябрь.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida pragmalingsvistika masalalariga oid bir qator tadqiqotlar mavjud. Yevropa tilshunosligida T.Van Deyk, J.Serl, J.Ostin, A.Vejbitskaya, rus tilshunosligida I.Susov, E.Aznaurova, N.Arutyunova, A.Maslova, G.Pochepsov<sup>2</sup> kabi tilshunoslar tomonidan pragmalingsvistikaning nazariy masalalari yoritilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N.Mahmudov, Sh.Safarov, M.Hakimov, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarova, S.Boymirzayeva, M.Qurbonova, M.Ernazarova, D.Lutfullayeva, L.Raupova, U.Rahimov, G‘.Qambarov, M.G‘oziyeva<sup>3</sup> kabi olimlarning izlanishlari pragmalingsvistikaning umumiy masalalarini izohlashda alohida ahamiyatga molik. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning pragmatik tadqiqi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni yetarli darajada deb bo‘lmaydi. Xususan, badiiy matnlardagi dialogik nutq pragmalingsvistik nuqtayi nazaridan o‘rganilmagan.

Jahon tilshunosligida nutqiy akt haqidagi nazariyalarning boyishi hisobiga dialogik nutq borasidagi tadqiqotlar kengaydi va ma’lum natijalarga erishildi. Tabiiy

---

<sup>2</sup> Ван Дейк Т. Язык. Познание. Коммуникация. – БГК им. И.А. Бодуэн де Куртенэ, 2000. – С. 308; Ван Дейк Т. Вопросы прагматики текста / Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – Москва: Прогресс, 1978. – С. 259-334; Серль Дж. Что такое речевой акт? / Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XVII. Теория речевых актов. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 151-170; Серль Дж. Косвенные речевые акты / Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XVII. Теория речевых актов. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 195; Серль Дж. Классификация иллокутивных актов / Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XVII. Теория речевых актов. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 170-195; Остин Дж. Слово как действие / Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск XVII. Теория речевых актов. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 131-150; Вежбицкая А. Речевые акты / Новое в зарубежной лингвистике. Лингвистическая прагматика. – Москва, 1985. Вып. XIV. – С. 251-275; Сусов И. Семантика и прагматика предложения. Калинин: КГУ, 1980. – С. 51; Арутюнова Н. Предложение и его смысл. Логико-семантические проблемы. – Москва: Наука, 1976. – С. 382; Азнаурова Э. С. Прагматика художественного слова. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 124; Маслова А. Введение в прагмалингвистику. – Москва: Флинта, 2010. – С. 152; Почепцов Г. Прагматика текста. – Калинин, 1980. – С. 240.

<sup>3</sup> Нурмонов А. Кўмакчили конструкциялар пресуппозициясидан ташқари конструкцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. №6. – Б. 42-46; Нурмонов А. Синтактик бирликларнинг прагматик томони. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 246; Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986. №6. – Б. 29-33; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 320; Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Фарғона, 1996. – Б. 165; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 26; Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 176; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 235; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди дисс. – Самарқанд, 1993. – Б. 140; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникативпрагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б. 49; Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари доктори дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 238; Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фанлари номзоди дисс. – Андижон, 1994. – Б. 120; Раупова Л. Диалогик дискурдаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 48; Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фанлари номзоди дисс. – Андижон, 1994. – Б. 120; Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 125; Ғозиева М. Просодика. – Тошкент: Академнашр, 2018. – Б. 176; Газиева М. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фанлари бўйича фалсафа д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – Б. 50.

dialogik nutq va badiiy dialogik nutq bo'yicha jahon tilshunosligida bir qator tadqiqotlar mavjud. Jonli so'zlashuv nutqi, dialogik nutq va badiiy dialogning o'rganilishida L.Shcherba, N.Shvedova, L.Yakubinskiy, L.Vigotskiy, P.Grays, J.Ostin, J.Serl, N.Arutyunova, E.Paducheva, A.Baranov, G. Kreydlin<sup>4</sup> kabi tilshunoslarning ilmiy qarashlari metodologik asos vazifasini o'taydi. O'zbek tilshunosligida dialogik nutq A.Hazratqulov, B.O'rinboyev, N.Mahmudov, A.Boboyeva, O'.Lapasov, L.Raupova, F.Karimova, G.Xasanova, X.Yo'ldosheva<sup>5</sup> kabi qator olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda dialogik nutqning sintaktik va mazmuniy tomonlari tahlil qilingan. Biroq badiiy matnlardagi dialogik nutqning pragmatik xususiyatlari, ularda nutqiy aktning voqelanishi, kommunikativ strategiya va taktika masalalari tadqiq etilmagan. Bu esa o'zbek tilshunosligida ushbu muammo bo'yicha qator izlanishlar olib borilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalardan biri sifatida qolmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Termiz davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi tarkibidagi "O'zbek tilshunosligi: badiiy nutq tahlili, antroposentrik nazariya, etnolingvistika, korpus tilshunosligi" mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek badiiy matnlardagi dialogik nutqning pragmatik tahlili misolida badiiy matn pragmatikasining o'ziga xosliklarini nazariy jihatdan asoslash.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

badiiy matnlardagi dialogik nutqning pragmatik xususiyatlarini o'rganish va badiiy nutq nuqtayi nazaridan voqelanish xususiyatlarini ochib berish;

badiiy dialog va jonli dialogning farqli xususiyatlarini tahlil qilish orqali muhim xususiyatlarini aniqlash;

<sup>4</sup> Шчерба Л.В. Восточно – лужицкое наречие. – СПб., Т.1. 1915. – С.54; Шведова Н.Ю.Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – М., 1960. – С. 277-280; Якубинский Л.П. О диалогической речи // Избранные работы. Язык и его функционирование. – М.: Наука, 1986. – С.17-59; Грайс Г.П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1985. – Вып. XVI. – С.217-237; Остин Ж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1986. – Вып. XVII. – С. 22-129; Серль Ж. Что такое речевой акт? // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1986. – Вып.XVII. – С. 151-169; Арутюнова Н.Д. Некоторые типы диалогических реакций и "почему" - реплики в русском языке // Филологические науки. – Москва, 1970. – С. 44-58; Арутюнова Н.Д. Диалогическая цитация (к проблеме чужой речи) // Вопросы языкознания. – Москва, 1986. – С. 50-64; Падучева Е.В. Вопросоответное соответствие// Высказывание и его соотносительность с действительностью. – М.: Наука. – С. 233-240; Баранов А.Н., Крейдлин Г.Е. Иллокутивное вынуждение в структуре диалога //Вопросы языкознания. – Москва, 1992. – С. 84-99; Вежбицка А. Речевые акты // Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1985. – С. 251-275.

<sup>5</sup> Хазраткулов А. Диалогическая речь в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Самарканд, 1966; – Б. 24; Шу муаллиф. Ўзбек тили диалогик нутқ синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1991; Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент: Фан, 1974– Б. 108; Махмудов Н.М. Эллипсис в узбекском языке: Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1977. – С. 111; Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўликсиз гаплар. – Тошкент, 1978. – Б.104; Лафасов Ў. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1996. – Б. 174; Раупова Л. Диалогикдикурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи: Филол. фан. д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 48 б; Каримова Ф. Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 56; Хасанова Г. Диалогик нутқда новербал воситаларнинг ўрни ва уларнинг прагматик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореф. – Самарканд, 2023. – Б. 136; Yo'ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi: Filol. Fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – Б. 227.

badiiy matnlardagi dialoglarni ifoda maqsadiga ko‘ra guruhlashtirish va o‘zbek badiiy matnlaridagi dialoglar misolida tahlil qilish;

badiiy dialoglarda nutqiy aktning voqelanishi, illokutiv maqsadning muloqot jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini yoritish hamda ulardagi nutqiy strategiya va taktikaning vazifasini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o‘zbek badiiy matnlaridagi dialogik nutq birliklari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek badiiy matnlaridagi dialogik nutqning pragmatik xususiyatlari va dialogik matnlarni milliy-madaniy va ijtimoiy-ruhiy omillar bilan uyg‘unligini tahlil etishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, umumlashtirish, komponent tahlil hamda lingvopragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

o‘zbek badiiy matnlaridagi dialogik nutq pragmatik nuqtayi nazardan ilk bor tadqiq etilib, badiiy dialoglarda kitobxon – muallif – personaj (adresant) – personaj (adresat)dan iborat “muloqot kanali” yuzaga kelishi asosida badiiy dialogik nutq moduli aniqlangan;

badiiy matnda dialoglarning inson ruhiyatini ifodalashda, unga xos bo‘lgan xususiyatlarni tasvirlashda hamda emotsional holatini ko‘rsatib berishda ustuvorlik kasb etishi hamda muallifning maqsadini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi vosita ekanligi dalillangan;

badiiy matndagi dialoglarning kommunikativ xususiyatlari asosida xabar, buyruq, fikr almashish, o‘zaro ta’sir etish va fatik belgilarga ega bo‘lgan turlari tahlil etilgan va ularning asosiy xususiyatlari misollar asosida dalillangan;

badiiy dialoglarda nutqiy aktlarning voqelanish xususiyatlari, dialogik nutq ishtirokchilarining kommunikativ niyatiga mos keladigan illokutiv nutqiy aktlarning turlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

samarali muloqot layoqati (kompetentligi)ning tarkib topishida nutqiy vaziyat, kommunikativ strategiya va taktika kabi pragmatik omillarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan;

badiiy dialogning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda pragmatik yondashuvning umumiy xulosalariga tayanish, adresant va adresat muloqotidagi ijtimoiy va psixologik tomonlarga e’tibor qaratish muhimligi, badiiy matnlardagi dialog namunalari milliy madaniy muhitni yoritishda muhim manba bo‘lishi asoslangan;

badiiy dialog turlari o‘rtasida muvofiqlilik mavjudligi misollar yordamida isbotlangan hamda ularning pragmatik mazmunning nutqiy vaziyat va kontekst bilan bog‘liqligi asoslab berilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada foydalanilgan ilmiy ma’lumotlarning ishonchli nazariy manbalardan olinganligi, keltirilgan lisoniy materiallarning asosiligi, pragmalingvistika sohasida qo‘llanilgan usullardan foydalanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi,

natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda erishilgan natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, badiiy matnlaridagi dialogik nutqning pragmatik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga doir nazariyalar umumlashtirildi, badiiy dialog turlari tavsiflandi hamda ular badiiy matnlardan olingan misollar yordamida tahlilga tortildi. Bu esa badiiy matnlardagi dialoglarning nutqiy muloqotga doir xususiyatlarini o'rganishga oid ilmiy- nazariy fikrlarni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natija va xulosalaridan ta'lim tizimida, xususan, "Badiiy tahlil asoslari", "Pragmalingvistika", "Psixolingvistika", "Uslubshunoslik", "Matn tilshunosligi" kabi maxsus kurslarni o'qitishda; pragmatiklikka oid darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy risolalar yaratishda, shuningdek, ta'limning quyi bosqichlarida ham badiiy matn tahlil qilishda ham foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbek badiiy matnlarida dialogik nutqning pragmatik tadqiqi tahlili asosida olingan ilmiy natijalar asosida:

dialogik nutq jarayonida shaxs bilan bog'liq yosh, gender, ijtimoiy maqom, milliy o'ziga xoslik kabi ekstralingvistik vositalarning muloqot jarayonini tarkib toptirishdagi o'rni, jonli dialogik nutq va badiiy dialogik nutq modullari, samarali muloqot layoqati (kompetentligi)ning tarkib topishida nutqiy vaziyat, kommunikativ strategiya va taktika kabi pragmatik omillarning ahamiyatiga doir nazariy ma'lumotlardan 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-FZ. 201908172-raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" amaliy loyihasida foydalanilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 28-fevraldagi 04/1-523-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek tilida ta'limiy korpus yaratishga oid nazariy ma'lumotlar mukammallashtirilib, til korpusini lisoniy materiallar bilan boyitishga erishilgan;

badiiy matnlardagi dialogik nutqning pragmatik xususiyatlarini o'rganish va badiiy nutq nuqtayi nazaridan voqelanish xususiyatlarini ochib berish, badiiy dialog turlarining pragmatik mazmunning nutqiy vaziyat va kontekst bilan bog'liqligi haqidagi xulosalardan 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022. Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 28-fevraldagi 04/1-524-son ma'lumotnomasi). Natijada lingvodidaktik elektron platforma yaratishda lingvistik vositalarning qamrovi kengaytirilgan;

ommaviy axborot vositalarida dissertatsiyaning dialogik nutq jarayonining shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy-ruhiy, milliy-madaniy omillarning o'rni xususidagi tahliliy fikr va nazariy xulosalaridan 2023-yil "Ishonch" teleradiokompaniyasining "Ta'lim taraqqiyoti" ko'rsatuvida foydalanilgan. (Surxondaryo viloyati Ishonch teleradiokompaniyasining 2024-yil 4-fevraldagi 16-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuv materiallari mazmunan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta

ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnalda 2 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dialog – nutqiy muloqotning asosiy shakli sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida nutqiy muloqot, uning funksiyalari va turlari, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy-psixologik rollari, verbal va noverbal vositalarning nutqiy muloqotdagi o‘rni talqiniga doir masalalar yoritilgan.

Muloqot murakkab “integratsiyalashgan hodisa bo‘lib, unda tilning barcha xususiyatlari birlashadi”<sup>6</sup>. U murakkab jarayon bo‘lganligi sababli unga yagona va to‘g‘ri ta‘rifni berish mushkul. Ayrim manbalarda “Muloqot ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi axborot ayriboshlash, o‘zaro ta‘sir va bir-birini tushunishdan iborat jarayon”<sup>7</sup> sifatida ta‘kidlansa, M.G.Davletshin muloqotni “ikki yoki undan ortiq kishilar orasidagi affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo‘yicha ma‘lumot almashinishidan iborat bo‘lgan o‘zaro ta‘sir etishdir”<sup>8</sup> deb ta‘riflaydi. N.I.Formanovskayaning fikricha, muloqot – bu kommunikantlarning (kamida ikki kishining) o‘zaro axborot va fazaviy mazmuni almashishlarida maqomi, bajaradigan rollari va shaxsiy munosabatlariga mos holda ijtimoiy-kommunikativ jihatdan bir-biriga ta‘sir ko‘rsatishi, kommunikativ va kommunikativ bo‘lmagan natijalarga erishish uchun nutqiy xatti-harakatlarni tartibga solishidir<sup>9</sup>. V.N.Kunitsina, N.V.Kazarinova, V.M.Pogolipalarning qayd etishicha, muloqot kishilar o‘rtasida til yordamida maqsadli, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita aloqani o‘rnatish va saqlash jarayonidir<sup>10</sup>. Tilshunos olim Sh.Safarov muloqot deganda nutqiy muloqotni nazarda tutadi va uning mohiyatini quyidagicha izohlagan: Muloqot – kommunikantlarning darak, so‘roq yoki buyruq shaklidagi fikr almashishi. Tilning mavjudligi insonlarning so‘zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog‘liq. Bu harakatlarning

<sup>6</sup> Колшанский Г.В. Коммуникативная функция и структура языка. / Под ред. Булыгиной Т. В. 2-ое изд. – КомКнига, 2005. – С. 176.

<sup>7</sup> Петровский А.В. Психология: учебник для вузов. Учебник для студентов высших педагогических учебных заведений. – Москва: Академия, 1998. – С. 512.

<sup>8</sup> Давлетшин М.Г. Умумий психология. – Тошкент, 2002. – Б.53.

<sup>9</sup> Формановская Н. И. Речевое взаимодействие: коммуникация и прагматика. – Москва: ИКАР, 2007. – С. 20.

<sup>10</sup> Кунитсина В. Н., Казаринова Н. В., Погोलипа В. М. Межличностное общение. Учебник для вузов. – СПб: Питер, 2001. – С. 544.

bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o‘rinda gap) asl ma’nosidan tashqari tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va’da berish kabi mazmuni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladi. Bu degani – so‘zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasi. Demak, nutqiy akt so‘zlovchining ma’lum muhitda, aniq maqsadda yig‘ilgan tinglovchiga lisoniy murojaatidir<sup>11</sup>. Bunday lisoniy murojaat, albatta, nutqiy muloqot jarayonida yuzaga chiqadi. So‘zlovchi tomonidan tuzilgan nutqiy aktlar muloqotning eng kichik tashkil etuvchi birliklari hisoblanadi.

Keltirilgan ta’riflardan shuni bilish mumkinki, muloqot termini tilshunoslar tomonidan, asosan, nutqiy muloqotga nisbatan ishlatilmoqda. Nutqiy muloqotni kishilarning o‘zaro axborot almashinuvi orqali bir-biriga maqsadli nutqiy ta’sir ko‘rsatishidir, deb ayta olamiz. Nutqiy muloqotning asosiy va muhim birligi nutqiy aktlar bo‘lib, ularsiz muloqotni shakllantirib bo‘lmaydi. Shu bilan birga nutqiy muloqotning amalga oshishi uchun kamida ikki kishi ishtirok etishi, ya’ni axborotni uzatuvchi – adresant, ma’lumotni qabul qiluvchi – adresat mavjud bo‘lishi va nutq vaziyati yuzaga kelishi kerak. Bu jihatdan kommunikantlar va nutq vaziyatini ham muloqotning muhim komponentlari sifatida ko‘rsatish mumkin.

Tilga ijtimoiy va madaniy muhitning ta’siri sezilarli darajada katta. Nutqiy muloqot turli ijtimoiy belgiga ega shaxslarning bir-biri bilan o‘zaro fikr almashinuvi, ma’lumot – axborot yetkazishi, nutqiy ta’sir ko‘rsatishi kabilarni anglatishi sababli kommunikatsiya ishtirokchilarining quyidagi doimiy ijtimoiy belgilarini inobatga olish maqsadga muvofiq: yosh, yashash joyi, ma’lumot darajasi, kasb nuqtai nazaridan, jinsi, ishdagi va oiladagi mavqeyi jihatidan.

Har bir millatning o‘ziga xos madaniyati bor, bu esa fikrlashning xilma-xilligini belgilaydi. V.fon Gumboldt ta’biri bilan aytganda esa “Har bir til egasida o‘sha tilning milliy ruhi yotadi”<sup>12</sup>. Til esa tafakkurning tashqi ifodasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, turli tillarda so‘zlovchi xalqlar turlicha fikrlaydilar, turli dunyoqarashga va turli qadriyatlarga ega bo‘ladilar. Shu jihatdan ularning muloqot madaniyati ham turlicha bo‘ladi. Bu esa kommunikativ xulq-atvor tushunchasining yuzaga kelishiga turtki bo‘ladi. Kommunikativ xulq-atvor – bu muloqot jarayonida muayyan shaxs yoki odamlar guruhining jamiyatning muloqot normalari va ananalari bilan tartibga solinadigan og‘zaki yoki og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlari majmuyidir. Muloqot normalari milliy xususiyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Y.E.Proxorov kommunikatorlar maqomidagi cheklovlar haqida to‘xtalib, ularning ikki turini sanab o‘tadi: vertikal (yuqori – past) va gorizontal (teng – teng)<sup>13</sup>. Muloqotning situatsion normalari milliy xususiyatlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin, masalan, o‘zbek xalqi ananalarida erkak va ayol, ota va bola munosabatlarini vertikal xarakterga ega deyishimiz mumkin. Ayrim xalqlarda, masalan, rus madaniyatida erkak va ayol munosabatlari gorizontal xarakterda ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bu munosabatlar har bir millatda har xil ko‘rinishda bo‘ladi.

Insonlar o‘rtasidagi muloqotda nafaqat axborot almashiniladi, balki muloqot

<sup>11</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 71.

<sup>12</sup> Гумбольдт В.фон. Избранные труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1984. – С.83.

<sup>13</sup> Прохоров Ю.Е., Стернин И.А. Русские: коммуникативное поведение. – Москва: Изд. “Флинта”, Изд. “Наука”, 2007. – С. 29.

davomida ma'lumot shakllantiriladi, aniqlashtiriladi va rivojlantiriladi. Nutqiy muloqot ma'lumotlarning og'zaki almashinuvini to'g'ri ifodalovchi tushunish akti bo'libgina qolmay, balki shaxslar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri emotsional aloqa sifatida ham qaraladi. Muloqot ikki turdagi aloqa vositalari bilan tavsiflanadi: verbal (og'zaki) va noverbal vositalar. Verbal aloqa – inson nutqi yordamida tajriba almashish, muloqot o'rnatish va harakatlarni rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir. Verbal aloqa vositalari nutq faoliyatining to'rt turini o'z ichiga oladi: gapirish, yozish, tinglash va o'qish. Bu to'rt tur bizning “til borlig'imiz” tizimini tashkil qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Nutq faoliyati – til orqali amalga oshirilib, o'z motivi, maqsadi va yakuniy natijasiga ega bo'lgan faoliyatdir. Bu xabarni yuborish yoki qabul qilishning faol, maqsadli jarayonidir va u dialog xarakteriga ega. Biror kishi gapirganda, yozganda, o'qiganda, boshqasini tinglaganda nutqiy harakatni bajaradi.

Muloqotchilarning bevosita muloqot qilish jarayoni og'zaki aloqa vositalari bilan birgalikda, yuz ifodalari, imo-ishoralar, nutqning ovozli va intonatsion modulyatsiyalarini o'z ichiga olgan og'zaki bo'lmagan komponentlar noverbal vositalar yordamida ham amalga oshiriladi. Noverbal vositalar vaziyatga qarab nutqni ma'lum me'yorga keltirish, adresantning maqsadini aniq ifodalash vazifasini bajaradi. Noverbal vositalar nutqiy muloqot jarayonida nutqqa qorishib, unga “emotsional ko'rinish, ekspressiv jon kiritish”<sup>14</sup> uchun xizmat qiladi. Shuningdek, tinglovchi ham ushbu noverbal vositalarni “o'qiy olishi” kerak. So'zlovchi tinglovchidagi bu vositalar orqali o'zini tinglayotganligini yoki tushunayotganligini va so'zlari unga qanday ta'sir qilayotganligini aniqlashi, tinglovchi o'zining harakatlari orqali so'zlovchining gaplarini tinglayotganligini yoki tinglamayotganligini, tushunayotgan yoki tushunmayotganligini, uning fikrlari ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini bildirishi mumkin. Masalan, diqqat aloqasi – suhbatdoshga qarash, boshni qimirlatish – tushunish, bosh barmoqni o'ziga qaratish – o'zini ta'kidlash, hissiy aloqa – qizarish kabi noverbal vositalar bilan ifodalanishi mumkin. N.I.Farmonovskaya tinglovchi so'zlovchi unga xayrixoh imo-ishora va mimik signallarni yuborayotganini his qilishi kerakligini, imo-ishoralar yordamida nutqini ritmlashtirishini hamda asosiy fikrlarini imo-ishoralar bilan ifodalashini ta'kidlaydi<sup>15</sup>. Har qanday imo-ishora tabiiy harakatga asoslanadi. Harakatning tabiati uni keltirib chiqargan sabablarga, u bajaradigan vazifalarga, so'zlovchining temperamentiga, yoshiga, hissiy holatiga, uning millatiga qarab o'zgaradi. Bu omillarning barchasi harakatning dinamikasi, sur'ati va ritmiga, uning “mantig'i” ga ta'sir qiladi. Barcha imo-ishoralar va harakatlar aniq, mazmunli, izchil va o'z vaqtida bo'lishi, suhbatdoshlarning maqsadiga mos kelishi, ularning ichki dunyosini, psixologik holatini, his-tuyg'ularini aks ettirishi kerak. Demak, “imo-ishora to'g'ri va o'z vaqtida bajarilishi kerak, u qisqa bo'lishi, lekin... kuchga ega bo'lishi kerak”<sup>16</sup>.

Qo'llarni yoyish, yelka qisish, boshni qashish, qoshlarni ko'tarish, peshonani

<sup>14</sup> Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 53.

<sup>15</sup> Формановская Н. И. Речевой этикет и культура общения. – Москва: Изд. “Икар”, 2002. – С. 31.

<sup>16</sup> Румнев А. А. О пантомиме. – Москва, 1964. – С. 204.

tirishtirish, ko‘zlarni olaytirish, yuzning qizarishi yoki oqarishi kabi harakatlar suhbatdoshga ma’lum bir ma’lumotlarni yetkazadi. Agar suhbat davomida suhbatdoshlardan biri qoshini chimirsa yoki g‘azabdan rangi oqarib ketsa u o‘z xohish-irodasiga qaramasdan, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi, suhbatdosh ularni ma’lum bir signal sifatida qabul qiladi:

– *Bilmadim,– dedi Sherzod qovog‘ini solib.– Irim-sirimni xotinlar biladi.*

*Sirojiddin Sherzodning qo‘rs javobidan ranjidi shekilli, jiddiy tortdi.*

– *Boboyning o‘rtoqlarini poyezdga chiqarib yubordim, – dedi qoshini chimirib.*

*Sherzod negadir gortorg mudirini esladi.*

– *Anavi novcha kishinimi?*

– *Boshqa! – Sirojiddin qo‘l siltadi. – Boboyning nimasi ko‘p – o‘rtog‘i ko‘p.*

*Bunisi direktor.(O‘.Hoshimov. “Nur borki soya bor”).*

Ushbu dialog matnida qo‘llangan qovog‘ini solmoq, qoshini chimirmoq, qo‘l siltamoq kabi noverbal vositalar har ikkala suhbatdoshning suhbatni davom ettirish niyati yo‘qligini bildiradi. Qosh chimirish va qovog‘ini solish nutqiy muloqotda norozilik kayfiyatini, qo‘l siltamoq beparvolik va “ahamiyatsiz” kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Bizga ma’lumki, muloqotning uchta shakli mavjud: juftlashgan yoki dialogik, guruhli va ommaviy. Dialogik nutq so‘zlashuv nutqining asosiy shakli bo‘lib, unda tilning kommunikativ vazifasi ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Dialog – bu nutqiy aktlar almashinuvidir, hamda u insonning jonli muloqoti muhitida vujudga keladi va ishlaydi. Nutqning nisbatan mustaqil shakli bo‘lgan dialogik nutq juda murakkab tuzilishga ega bo‘lgan kommunikativ faoliyatning o‘ziga xos turidir.

Dialogik nutqni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish 1920-1930-yillarda boshlangan. XX asrda L.V.Shcherboy Lusat serblarining tilini o‘rganish va kuzatish jarayonida olim uning suhbatdoshlari monolog nutqidan qochishlarini payqadi. Shunday qilib, dialogning tabiiyligi va monologning sun‘iyligi haqidagi tezis ilgari surildi. L.P.Yakubinskiyning 1923-yilda nashr etilgan “Dialogik nutq to‘g‘risida” asarida ham shunga o‘xshash fikrni uchratish mumkin. Olim ushbu asarida dialogni monologdan ko‘ra ko‘proq tabiiy ekanligini, monolog ham o‘z navbatida, “tabiiy” dan ko‘ra ko‘proq “madaniy” hodisa ekanligini ta’kidlab o‘tadi hamda dialogik nutqni o‘rganishning muhim masalalari va muammolarini hamda tadqiqotning mumkin bo‘lgan sohalarini belgilaydi. Bu esa dialogik nutq tadqiqida keyingi tadqiqotlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Jahon tilshunosligida dialog tilshunosligiga qiziqishning yangi to‘lqini XX asrning oxirida, E.Paducheva ta’kidlaganidek “dialogning tuzilishiga kirishga imkon beradigan kontseptual apparat ishlab chiqilgan” bir paytda kuzatildi<sup>17</sup>. Bu vaqtda dialog replikalarining semantik va strukturaviy xususiyatlarini, ularning bog‘lanish ko‘rsatkichlarini va umumiy qonuniyatlari N.D.Arutyunova va E.V.Paducheva tomonidan<sup>18</sup> o‘rganilgan bo‘lsa,

<sup>17</sup> Падучева Е.В. Прагматические аспекты связности диалога // Известия АН СССР. Сер. лит. и яз. 1982. Т.41. Вып. 4. – С. 305.

<sup>18</sup> Арутюнова Н.Д. Некоторые типы диалогических реакций и “почему”-реплики в русском языке // Филологические науки. – Москва, 1970. – № 3. Падучева Е.В. Прагматические аспекты связности диалога // Известия АН СССР. Сер. лит. и яз. – Вып. 4, 1982. – Б. 41.

A.R.Balayan, D.S.Zonenashvili, T.G.Vinokur dialogning tuzilishi va faoliyati, dialogik birlik doirasidagi replikalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash borasida tadqiqotlar olib borishgan<sup>19</sup>. 1980-yillarda dialog doirasida nutq aktining ishlashini ko'rib chiqishga bag'ishlangan asarlar paydo bo'ldi<sup>20</sup>. Kommunikativ o'zaro ta'sir masalalari E.V.Paducheva tomonidan keng tadqiq etildi va u tilshunoslikka "kommunikativ muvaffaqiyatsizlik" yoki "kommunikativ qobiliyatsizlik" atamasini kiritdi<sup>21</sup>. Keyinchalik O.P.Ermakova, E.A.Zemskaya, B.Y.Gorodetskiy tadqiqotlarida kommunikativ muvaffaqiyatsizlik muammosi turli tomonlardan o'rganildi<sup>22</sup>. M.B.Mixlina, M.I.Rusina va V.B.Kucherensov rus va xorijiy til material bo'yicha har xil turdagi dialogik birliklarni<sup>23</sup>, G.G.Muxametova, L.V.Lisochenko kabi olimlar badiiy dialogdagi dialogik birliklarning funksional, semantik va sintaktik xususiyatlarini tadqiq etishgan<sup>24</sup>. A.N. Baranov va G.E. Kreydlin dialogik tadqiqotining asosiy birligi sifatida "minimal dialogik birlik" yoki "minimal dialog" ni ajratib ko'rsatadi.

O'zbek tilshunosligida dialogik nutqni o'rganishga bo'lgan qiziqish XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan. A.Hazratqulovning dialogik nutq tadqiqiga bag'ishlangan "Hozirgi o'zbek adabiy tilida dialogik nutq" nomli nomzodlik dissertatsiyasi so'zimiz isboti bo'la oladi. So'zlashuv nutqida uchraydigan savol-javob shaklidagi dialog va uning to'liqsiz gaplardan farqi, dialog va monolog o'rtasidagi tafovut kabi masalalar ushbu ishda qayd etilgan<sup>25</sup>. N.Mahmudovning nomzodlik dissertatsiyasining "Dialoglarda ellipsis" deb nomlangan ikkinchi bobida dialogik nutqni xarakterlovchi xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Mazkur ishning o'zbek tilshunosligidagi qimmat shundaki, unda ilk bora dialogik nutqning sintaktik xususiyatlari bilan birgalikda mazmuniy tomonlari situativ va kontekstual ellipsis doirasida ochib berilgan. Umuman olganda, o'zbek tilshunosligida dialogik nutq masalalarini ilmiy asosda o'rganish o'tgan asrning 60-70-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda yaratilgan tadqiqotlar orasida A.Boboyeva, A.Shomaqsudov ilmiy izlanishlarini alohida e'tirof etish mumkin<sup>26</sup>. O'zbek tilshunosligida nutqiy muloqot

<sup>19</sup> Балаян А.Р. К проблеме функционально–лингвистического изучения диалога//Изв. АП СССР. Отд. лит. и яз. 1971. Вып. 4. Зоненашвили Д.С. Диалог в драме и диалог в прозе: Дис. Канд. филол. наук. М., 1980. Винокур Т.Г. Говорящий и слушающий. Варианты речевого поведения. – Москва: Наука, 1993.

<sup>20</sup> Дебрэнн М.М., Нариньяни А.С. Речевой акт как элемент диалогового взаимодействия // Методологические проблемы искусственного интеллекта. – Тарту, 1983.

<sup>21</sup> Падучева Е.В. Қўрсатилган асар. – С. 305–313.

<sup>22</sup> Ермакова О.Н., Земская Е.А. К построению типологии коммуникативных неудач (на материале естественного русского диалога) // Русский язык в его функционировании: Коммуникативнопрагматический аспект. – Москва, 1993. Городецкий Б.Ю., Кобозева И.М., Сабурова И.Г. К типологии коммуникативных неудач // Диалоговое взаимодействие и представление знаний: Сб. науч. тр. – Новосибирск: Издво ВЦ СО АН СССР, 1985.

<sup>23</sup> Михлина М.Б. Из наблюдений над синтаксическими особенностями диалогической речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1955. Русина М.И. Двучленные диалогические единства в современной французской речи: Структурно-семантический анализ: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Л., 1972. Кучереносов В.Б. Коммуникативно – структурная характеристика вопросно-ответного комплекса // Русское языкознание. Вып. 18. – Киев, 1989.

<sup>24</sup> Мухаметова Г.Г. Функционально – семантические типы вопросоответного диалогического единства в поэтической речи // Проблема сверхфразовых единств. – Уфа, 1985. Лисоченко Л.В. О функциональной сочетаемости реплик в составе диалогического единства // Сочетаемость синтаксических единиц. – Р-н-Д, 1984.

<sup>25</sup> Хазраткулов А. Диалогическая реч в современном узбекском литературном языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1966. – Б. 24.

<sup>26</sup> Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўликсиз гаплар: филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1968. –Б.104; Шомаксудов А. Сўзлашув стили. Ўзбек тили стилистикаси масалалари. – Тошкент: ТошДУ илмий асарлари,

masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham talaygina bo‘lib, unda muloqot xulqi xususiyatlari<sup>27</sup>, nutqiy muloqotning pragmatik jihatlari<sup>28</sup>, o‘zbek so‘zlashuv nutqida gap bo‘laklari tartibi tahlili<sup>29</sup>, muloqotning ekstralingvistik va intralingvistik omillari tadqiqi<sup>30</sup> yoritilgan.

**“Dialog – badiiy matnning mazmunli tarkibiy qismi”** deb nomlangan tadqiqotning ikkinchi bobda badiiy dialogik nutq, uning turlari va tabiiy dialogdan farqli xususiyatlari tahlil qilingan. Badiiy dialoglarni guruhlashda ularning pragmatik va psixologik jihatlari e‘tiborga olingan.

Inson faoliyatining asosiy qismi kommunikativ munosabatlardan iborat bo‘lib, bu ularning yashash tarzini belgilab beradi. Matn esa ana shu munosabatlarning mahsuli bo‘lib, shakliy va mazmuniy tugallikka ega bo‘lgan kommunikativ hodisa sanaladi. Matn turlari orasida badiiy matn o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Badiiy matn tilshunoslikning eng murakkab va ko‘p qirrali obyektidir. Badiiy matn boshqa matn turlaridan ifoda usullarining betakrorligi, ruhiy, estetik va didaktik ta’sir ko‘rsatishning kuchliligi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Badiiy matn – inson borlig‘ining til orqali reallashuvi, inson menining ro‘yobga chiqish shakli hisoblanadi<sup>31</sup>. Badiiy matn badiiy nutq uslubida yaratiladi. Shu bilan birga badiiy matnda boshqa nutq uslublari ham muallif maqsadiga mos holda erkin tarzda ishlatilishi mumkin. “Badiiy nutq asar ichida muallif tomonidan qay tarzda hikoyalanihiga qarab yozuvchining fikrlash doirasi, yozish uslubi, falsafiy mushohadasi haqida tasavvur hosil qilamiz. Muallif bayon jilovini badiiy-estetik niyatiga ko‘ra goh o‘z qo‘lida ushlab turadi, goh personajlar qo‘liga tutqazadi, goh o‘zga hikoyachiga topshiradi”<sup>32</sup>. Bu esa badiiy asarda qahramonlar nutqi va muallif nutqining ajratilishini taqozo etadi. Qahramonlar nutqi dialogik yoki monologik ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Dialogik nutqda qahramonlar tabiatini aniq ifodalash imkoniyati mavjud. Badiiy matndagi dialog qahramonlarning o‘zaro fikr almashish jarayonigina emas, balki qahramonlar dunyoqarashini aks ettiruvchi, kitobxonda ularga nisbatan salbiy yoki ijobiy fikrni uyg‘otuvchi, muallif niyatini ro‘yobga chiqaruvchi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hodisadir. Dialoglar badiiy matnda syujetni rivojlantirish, xarakterlarni takomillashtirish, qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yoritish, ularning ichki dunyosini ochish, yuzaga kelgan ziddiyatlarni keskinlashtirish hamda badiiy asarning haqqoniyligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Shunga ko‘ra dialoglar badiiy matnda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Axborot berish vazifasi. Dialog orqali yozuvchi turli ta’riflar, harakat sodir bo‘lgan joy va vaqt, oldingi voqealarni aniqlab beradi.

2. Psixologik vazifasi. Badiiy matnlarda dialog jarayonida, shuningdek

---

1972. – Б. 37.

<sup>27</sup> Мўминов.С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий–лисоний хусусиятлари. – Фарғона, 2021. – Б. 224.

<sup>28</sup> Тоирова Г. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. Фанлари бўйича фалсафа док.(PhD). дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 157.

<sup>29</sup> Мусаев А. Ўзбек сўзлашув нутқи услубида гап бўлаклари тартиби. Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 2000. – Б. 132.

<sup>30</sup> Рустамов Д. Мулоқотнинг интралингвистик ва экстралингвистик омиллари ҳамда замонавий концепциялари. Филол. фанл. докт (DSc). дисс. – Андижон, 2021. – Б. 287.

<sup>31</sup> Ёқубов И. Бадий матн ва эстетик талқин. – Тошкент: Фан ва технология нашриёти, 2013. – Б. 4.

<sup>32</sup> Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 36.

xatti-harakatlarda asar qahramonlarining psixologik holati kitobxon uchun aniq namoyon bo'ladi.

3. Baholash vazifasi. Asar muallifi qahramonlar dialogik nutqi yordamida asar voqealarini, vaziyatlarini, qahramonlarini baholash imkoniyatlarini oshiradi.

Bugungi kunda jonli dialogik nutq va badiiy dialogik mikromatn chegaralarini belgilash muammosi eng murakkab va munozarali masalalardan biri hisoblanadi. Badiiy dialogning bir qancha xususiyatlari bor, u shu jihatdan kundalik dialogdan tubdan farq qiladi. V.V. Vinogradov, T.G. Vinokur, N.Y. Shvedova va boshqalarning fikriga ko'ra, badiiy dialog deganda dialog nazariyasida mavzu so'zlashuv nutqining nusxasi bo'lmagan, lekin ayni paytda unga taqlid qila oladigan, uning o'ziga xos elementlarini ifodalovchi alohida nutq bo'lagi tushuniladi<sup>33</sup>. So'zlashuv dialogik nutqining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: mulohazalarning qisqaligi va to'liq bo'lmagan bayonotlarning mavjudligi, og'zaki bo'lmagan aloqa usullaridan (imo-ishoralar, mimikalar, ramziy til va boshqalar) keng foydalanilishi, intonatsiyaning mavjudligi, jummalarning erkin tuzilishi, nutqning tayyor emasligi, qo'llanish doirasi chegaralangan leksikaning ustunligi (jargon, vulgarizm, dialektizmlar va boshqalar). Badiiy muloqotda so'zlashuv nutqining o'ziga xos xususiyatlariga taqlid qilinadi, og'zaki muloqot holati imkon qadar takrorlanadi, ammo bu jarayon muallifning qasddan, rejali harakatlari bilan tavsiflanadi, bu esa og'zaki muloqotning "bo'ysunmas" tabiatiga ziddir. Badiiy matndagi personajlar dialogi bu asarda muallif nazarida og'zaki muloqotga yozma taqlid sifatida tushuniladi, bunday dialog ayni paytda og'zaki va yozma nutqning barcha xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Muallif tomonidan badiiy dialogning asosi sifatida qabul qilingan suhbat dialogining modeli ikkinchi "tashqi" kommunikativ rejaning mavjudligi bilan murakkablashadi. Shubhasiz, badiiy asardagi personajlar dialoglari badiiy adabiyot maydonida, muallif tasavvuri bilan yaratilgan badiiy olam makonida bo'lsa-da, bunday dialoglar replikalarining niyati ortida muallifning o'quvchiga ta'sir qilish kabi niyati yashirin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, personajlarning har bir nutq harakatidagi niyati muallifning umumiy maqsadiga bo'ysunadi.

R.A. Budagov badiiy va tabiiy dialog uchun to'rtta farqlovchi xususiyatni ko'rsatib o'tadi. Unga ko'ra badiiy dialog uchun quyidagilar xarakterlidir: muayyan uzunlik, rejalashtirish, mulohaza yuritish, muallif tomonidan belgilangan yagona harakatga bo'ysunadigan elementlarning o'zaro bog'lanishi, matnni qurishda vaqt, ritm va tempning muayyan qoidalari. Shu bilan birga, og'zaki so'zlashuv (badiiy bo'lmagan) dialogiga quyidagilar xosdir: muloqot davomiyligining erkinligi, spontanlik, so'zlashuv jarayonining erkinligi, qo'shimcha omil – intonatsiya mavjudligi<sup>34</sup>.

Dialog u xoh so'zlashuv dialogi, xoh badiiy dialog bo'lsin, inson faoliyatining turlaridan biri sifatida, birinchi navbatda, maqsadni belgilash bilan tavsiflanadi. Maqsadlarning farqi dialogning ko'plab parametrlarini belgilaydi.

<sup>33</sup> Виноградов В.В. Избранные работы. О языке художественной прозы. – Москва, 1980. Винокур Т.Г. Говорящий и слушающий. Варианты речевого поведения. – Москва: Наука, 1993. Шведова Н.Ю. Очерки по синтаксису русской разговорной речи. – Москва, 1960, С. 280-352.

<sup>34</sup> Будагов Р.А. Писатели о языке и язык писателей. – Москва, 1984. – С. 212

N.D.Arutyunova dialogik muloqot janrlarining quyidagi umumiy guruhini keltiradi<sup>35</sup>:

**1.Ma'lumot berish dialogi.** Ushbu turdagi dialoglar ancha murakkab tuzilishga ega. Bu dialogda asosiy kommunikativ maqsad ma'lumot olishdir. Bunda muloqot tashabbuskori rejalashtirilgan tarzda suhbatdoshidan ma'lumot olishga harakat qiladi bu esa dialogning izchilligi va mantiqiyiligini ta'minlaydi. Shu bilan birga ma'lumot so'ragan dialog tashabbuskorining kommunikativ roli ushbu ma'lumotni taqdim etgan suhbatdoshiga nisbatan kamroq kommunikativ faollikni nazarda tutadi. Bunda suhbat tashabbuskorining roli suhbatdoshining nutqini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishdan iborat bo'lib u dastlabki kommunikativ muloqotga kirishga turtki bo'luvchi replikani kiritadi va keyin esa aniq savollar beradi, so'raydi, muhim narsani ta'kidlaydi va hokazo. Dialogik nutqning ma'lumot beruvchi turi monolog bilan yaqinlashadi, chunki bunda tashabbuskor kommunikantning satrlarini chiqarib tashlash orqali monologga aylantirish mumkin. Muloqotning bu turida tashabbuskor kommunikantning nutqi bilan birga kelgan muallifning sharhida odatda quyidagi so'radi, qayta so'radi, aniqladi, savol berdi, so'zini bo'ldi, so'roqni davom ettirdi kabi fe'llar ishtirok etishi mumkin. Badiiy matnlarda ba'zida ushbu nutq fe'llari quyidagi harakat fe'llari va noverbal vositalar bilan almashtirilishi mumkin: qaradi, ko'zlarini pirlpiratdi, qoshini chimirdi, o'qrayib qaradi va hokazo. Bu vositalar savolning ma'nosiga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Masalan:

*Uning gapini bo'ldim:*

*– Sizlarni dengizga cho'ktirib yuborishgan, deb eshitgan edim...*

*– Yolg'on gap. Bu "parasha" gap. Hammamiz sog'-omon yurtimizga yetib kelganmiz.*

*– Dyun omonmi? Bola-chaqali bo'lib ketgandir? – deb so'radim undan yaxshi bir gap eshitish ilinjida. (S.Ahmad. "Oftob oyim").*

Ma'lumot oluvchi kommunikatorning nutqi esa gapini boshladi, davom etdi, murojaat qildi, aniq gapirdi, titroq ovozda gapirdi kabi fe'llar bilan keladi.

**2. Buyruq beruvchi dialog.** Bu dialogda asosiy maqsad muloqotda yetakchi suhbatdosh boshqa bir muloqotchini harakatga undashdan iborat. Badiiy dialogning ushbu turida faol kommunikator, dialogning tashabbuskori so'raydi, talab qiladi, buyuradi, maslahat beradi, ishontiradi, iltimos qiladi yoki tavsiya qiladi va hokazo. Uning suhbatdoshi vaziyatga qarab bu tashabbusga javob beradi. Muloqotchining harakatga undaydigan gaplariga muallifning quyidagicha izohlari kiritiladi: buyurdi, ijozat berdi, g'azab bilan gapirdi, qat'iy gapirdi kabi.

*– Qani, yur, – deb ko'cha tomon boshladi. Uning dag'al muomalasi Sayfini tashvishga soldi. "Bir baloga giriftor qilmasaydi", deb qo'rqdi.*

*– Boyagi joyga hayda, – deb buyurdi Hamdam mashinaga o'tirgach. Keyin so'radi: – Kanistringda benzin bormi?*

*– Yo'q, – dedi Sayfi ajablanib.*

*– Yo'lda olvol, o'n litr yetadi.*

*– Uzoqqa boramizmi?*

*– Uzoqqa... shunaqangi uzoqqa... (T.Malik. "Shaytanat". 2-kitob.)*

Informatsion dialog turida ma'noni sezilarli darajada o'zgartirmagan holda

<sup>35</sup> Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1998. – С. 650.

monologga aylantirsa bo‘ladi, lekin dialogning bu turida buning imkoni yo‘q.

**3. Fikr almashish dialogi** (qaror qabul qilish yoki haqiqatni aniqlash uchun fikr almashish). Bu turdagi dialogda asosiy maqsad – har bir suhbatdoshning o‘z nuqtayi nazarini bildirishi va uni asoslay olishini nazarda tutadi. Bunda fikr almashish tinch-do‘stona holda kechishi yoki nizoga olib kelishi mumkin. Fikr almashish dialogining tuzilishi taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin: kommunikatorlar muammo bo‘yicha o‘z fikrlarini navbatma-navbat bildiradilar, bir-birlarini tinglaydilar, fikrlariga aniqlik kiritadilar, qayta so‘rashadi va to‘xtatadilar, savollar berishadi. Badiiy dialoglar tahlil qilingan namunalar orasida bu tur ko‘p uchraydi.

– *Bo‘tam, mening ojiz fikrim balki adashayotgandir. Lekin... sizlarning ishlarigizda bir yovuzlik ko‘ryapman.*

... *Asadbek boshini bir og‘irlik, bir azob bilan ko‘tardi.*

– *Ota, bizning ishimiz nozik. Bir-ikkita kooperativlar ochganmiz. Do‘st bor, dushman bor...*

– *Dushmanning biri ham xatar, – deb mezbon Asadbekning fikrini quvvatladi.*

– *Biz ba‘zan hukumatni aldashga ham majburmiz. Hukumatning qoidalari chatoq, aldamaslikning iloji yo‘q. “Odamlar qing‘ir ish qilsin” deb qing‘ir qoidalarni o‘ylab chiqaradigan amaldorlar ham bor-da!*

– *Oshnangizni... hukumat ta‘qib qilmadi, deyman?*

– *Nega bunday deyapsiz?*

– *Hukumat ta‘qib qilsa, oilasiga tegmas, deyman.*

– *Ha... to‘g‘ri anglabsiz. Biz bilan kelisha olmaydigan boshqa kooperativlar bor.* (T.Malik. “Shaytanat”, 3-kitob.)

**4. Shaxslararo ta‘sir dialogi** (shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish yoki tartibga solishga qaratilgan dialog). Shaxslararo ta‘sir dialogi suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni bir maromda borishi uchun dialog ishtirokchilarining fikrlari yoki his-tuyg‘ularini ifodalashni nazarda tutadi. Bu dialogning mikrostrukturasi erkin tuzilgan bo‘lib, ishtirokchilarning kommunikativ faoliyati va kommunikativ rollarida hech qanday cheklovlar yo‘q. Shaxslararo ta‘sir dialogini monologik nutqqa aylantirishning imkoni yo‘q. Bu dialoglar usullar bilan bir-biridan farqlanadi, ularning har birining alohida xususiyatlari bitta dialogda mavjud bo‘lishi ham mumkin va ular bunda bir-birini to‘ldiradi.

– *Sizga salom dedilar, yaxshilar, – dedi Chuvrindi.*

– *Sog‘ bo‘lsin, qardoshim. Xo‘sh, meni nima uchun qidirdilaring?*

– *Qidirganimizning boisi... – Chuvrindi uning o‘tkir nigohlariga dosh berolmay ko‘zlarini pastga qadab oldi. – Bir odamingiz Hosilni izlab borgan ekan. Bilganlarimizni o‘zingizga aytgani atayin keldik.*

– *Nima, mening odamimga ishonmadilaringmi? – dedi Xongirey bir oz dag‘al ohangda.*

– *Ishonishga ishonamiz. Lekin bo‘lgan voqeani o‘zingiz eshitsangiz yaxshi bo‘ladi. Vositachiga aytilgan gaplarga yo bitta so‘z qo‘shilishi yoki tushib qolishi mumkin.* (T.Malik. “Shaytanat”. 3-kitob.)

**5. Fatik dialog.** O‘ziga xos kommunikativ maqsadning mavjudligi bilan

ajralib turadi. Bu turdagi dialogning kommunikativ maqsadi aloqani o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, o'zini suhbatdoshning o'rniga qo'yib ko'rish (identifikatsiyalash) va hokazo. Mikrotuzilmasi erkin, ko'proq madaniy, siyosiy, ma'rifiy mavzular tanlanadi. Fatik muloqotning tashabbuskori rolini istalgan kommunikant bajarishi mumkin. Dialog tashabbuskori suhbat mavzusini va unga oid boshlang'ich ma'lumotni keltiradi, shundan so'ng ishtirokchilar faolligi boshlangan mavzu ularni qay darajada qiziqtirganligiga hamda shu mavzuga oid bilimlariga bog'liq bo'ladi:

– *Bilaman. O'sha oxirgi uchrashuvda sizlar meni noto'g'ri tushundinglar. Meni amalparast deb o'yladinglar. Mahmud, aqalli siz ham meni tushunmadingiz-a? Axir men mansabparast emas, millatparastman! Men millatim uchun jonimni tikkanman. Menda millatim uchun jondan boshqa hech narsa yo'q. Molim ham, kuchim ham yo'q. Kuch, boylik sizlarda bor. Men sizlarda ham millat tuyg'usi, hurriyat tuyg'usi uyg'onsa edi, deb umid qiluvdim. Sizda shunday tuyg'uning uchqunini ko'rgandim. Afsus, adashibman.*

– *Adashmagansiz. Millat uchun biz ham jon berishimiz mumkin, – Chuvrindi shunday deyishga dedi-yu, gap ohangidagi soxtalikni sezib, o'ng'aysizlandi.*

*Deputat bu gapni eshitib, boshini egdi. Qahvadan bir-ikki ho'pladi.*


– *Mahmudbek, odam boshqalarni aldagan taqdirda ham o'zini o'zi aldamasligi kerak. Men endi tushunib yetyapman. Odamni o'ttiz- qirq yoshida Vatanni sevishga o'rgatish mumkin emas ekan. Agar odamning o'zida zo'r istak bo'lsa o'rganar-u, ammo bu tuyg'uni mukammal deyish mumkinmas. Vatan tuyg'usi ona suti bilan singishi kerak ekan. Xafa bo'lmang-u, sizlarda ona suti bilan boshqa tuyg'u kirgan. (T.Malik. "Shaytanat", 3-kitob.)*

Jahon tilshunosligida badiiy matnlardagi dialog modeli ham tuzilgan bo'lib, badiiy asarlarda taqdim etilgan dialogni tabiiy dialogning yozma taqlidi ekanligi hamda modelining barcha parametrlari xayoliy va muallifning ijodiy rejasiga mos kelganligi sababli, muallif o'z asaridagi har qanday dialogning yaratuvchisi sifatida badiiy dialogik muloqot modelining asosiy, tashkiliy figurasi hisoblanadi. Badiiy dialogda muallif voqealar rivojini hamda dialog ishtirokchilarining kommunikativ vaziyatini belgilaydi. Ularning noverbal harakatlariga izoh beradi. Badiiy asarlardagi dialogni tahlil qilayotganda voqealar sodir bo'layotgan davr, muhit hamda makon inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har bir millatning o'z tarixi va o'ziga xos muloqot xulqi mavjud. Bu haqida tushunchalar bo'lmay turib esa asar g'oyasini, muallif maqsadini tushunish mushkul. Shu jihatlariga e'tibor bergan holda badiiy dialog modelida davr va makon figuralarining bo'lishini shart deb hisoblaymiz. Badiiy asar aloqa kanali bo'lib, xizmat qilgan kommunikativ akt badiiy matnning ko'p qatlamli kompozitsion strukturali tuzilishi bilan bog'liq bir qator o'ziga xosliklarga ega bo'ladi. Bu o'rinda adresant sifatida nafaqat muallifning o'zi, balki asar qahramonlari ham ishtirok etishi mumkin. Bundan kelib chiqqan holda makro va mikro kommunikativ aktlar ajratiladi: 1) muallif – ommaviy o'quvchi; 2) personaj – personaj, personaj – ommaviy o'quvchi<sup>36</sup>. Ushbu fikrga tayangan holda modelda o'quvchi – kitobxon figurasi bo'lishi maqsadga muvofiq, chunki badiiy asarda nafaqat adresant va adresat

<sup>36</sup> Азнаурова Э. Прагматика художественного слова.– Тошкент: Фан, 1988.– Б. 52.

muloqoti balki muallif va o'quvchi muloqoti ham yuzaga keladi. Badiiy matnda muallif obrazi yetakchi pragmatik kategoriya sifatida muayyan davr, qahramon, obyekt, voqeani badiiy asar kompozitsiyasining barcha qismlarida tasvirlashga harakat qiladi. Bu orqali u ma'lumot berish hamda emotsional baholash orqali o'quvchiga o'z his-tuyg'ularini yetkazish, badiiy tasvir va obrazli fikrlash orqali estetik va ma'naviy zavq berish maqsadlarini amalga oshiradi. Shu sababli biz keltirmoqchi bo'lgan modelimizga muallif niyatini ham kiritdik.

### Badiiy dialogik muloqot modeli



Pragmatika nuqtai nazaridan kommunikatsiya jarayonining ikkinchi qatnashchisi, ushbu nutq namunasi mo'ljallangan tinglovchi yoki o'quvchini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Ma'lum bir nutq namunasi kontekstini tushunish, uning umumiy hikoyadagi kommunikativ rolini anglash uchun so'zlayotgan va

eshitayotgan, yozayotgan va o'qiyotgan shaxslar nafaqat umumiy til bilimiga, balki tarixiy, madaniy, ijtimoiy mazmundagi ma'lumotlarga ega bo'lishi talab etiladi. O'quvchining saviyasi badiiy matnni qabul qilishda katta ahamiyatga ega. Badiiy matnni anglashda esa bu hal qiluvchi omildir<sup>37</sup>. Shuning uchun kitobxonlarning har xil bo'lishini hisobga olib o'quvchi figurasiga bilim va malaka fondi, psixofizik holat va vaziyatni baholash kabi vazifalarni yuklaymiz.

Tadqiqotning **“Badiiy dialog – matn pragmatikasi sohasi sifatida”** deb nomlangan uchinchi bobida badiiy matnlardagi dialoglarda nutqiy aktlarning ifodalanishi masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, dialogik matnlarda murojaatlarning funksiyasi, badiiy matnlardagi dialoglarda paremalarning pragmatik aspekti taqiq etilgan.

Tilshunoslikda nutqiy akt muammolari J.Ostin, Z.Vendler, J.Syori, D.Vunderlix, D.Frank, G.G.Pochepsov, T.Ballmer, V.Brennenshtul, J.Lich, V.N. Zabavnikov, I.P.Susov, D.Vanderveken, A.N.Baranov, G.Y.Kreydlin, S.A.Suxix tomonidan turli aspektlarda o'rganildi va ilmiy-nazariy jihatdan yanada rivojlantirildi<sup>38</sup>. Bu tadqiqotlar bugungi kunda ham turli yo'nalishlarda davom ettirilmoqda. O'zbek tilshunosligida ham nutqiy akt bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan<sup>39</sup>.

Har bir dialogik matnda ma'lum nutqiy aktlardan foydalaniladi. Yuqoridagi boblarda ko'rib chiqqanimiz badiiy dialog turlarida ham turli nutq aktlari ishtirok etadi va ular ma'lum kommunikativ maqsadlarni ifodalash uchun qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. Ushbu dialoglarda ham bir nechta kommunikativ maqsad (poliintensiya) ifodalanishini kuzatish mumkin:

– *Uzatvoramizmi?*

---

<sup>37</sup> Қазақова Н. Ғ. Фулом насрий асарларининг прагмалингвистик тадқиқи.. филол. фанлари бўйича фалсафа док. (PhD). дисс. – Наманган, 2019. – Б. 41.

<sup>38</sup> Austin J.L. How To Do Things With Words. – Oxford: Oxford Univ. Press., 1962; 2 nd ed., 1973. – 167 p.; Shu muallif. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов. – М.: Прогресс, 1986. Вендлер З. Иллокутивное самоубийство // Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистическая прагматика. – М., 1985. Вып. XVI. – С. 233-250; Серль Дж. Классификация иллокутивных актов // Новое в зарубежной лингвистике: Теория речевых актов. – М., 1986. Вып. XVII. Wunderlich D. Studien zur Sprechakt theorie. – Frankfurt, 1976.; Ballmer and W. Brennenstuhl. Speech Act Classification, Springer-Verlag. – Berlin-Heidelberg, 1981. – 274 p; Leech G. Principles of pragmatics. – London; New York, 1983. – 250 p.; Забавников В.Н. К проблеме структурирования речевого акта (речевого действия) // Вопросы языкознания. – М., 1984. – №6. – С. 119-124; Франк Д. Семь грехов прагматики: тезисы о теории речевых актов, анализе речевого общения, лингвистике и риторике // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVII. Теория речевых актов. – М.: Прогресс: 1986. – С. 363-37; Почепцов О. Основы прагматического описания предложения. – Киев: Вища школа, 1986. – С. 75; Шу муаллиф. Слушатель и его роль в актах речевого общения // Языковое общение: Единицы и регулятивы. – Калинин: Изд-во КГУ, 1987. – С. 26-37; Сусов И.П. Лингвистическая прагматика // <http://homepages.tversu.ru/~ips/Pragmg.html>; Вандервекен Д. Небуквальные речевые акты // Концептуализация и смысл. – Новосибирск: Наука, 1990. – С. 31-61; Баранов А.Н., Крейдлин Г.Е. Иллокутивное вынуждение в структуре диалога // Вопросы языкознания. – М., 1992. – №2. – С. 84-99; Сухих С.А. Прагмалингвистическое измерение коммуникативного процесса: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Краснодар, 1998. – 30 с. va boshqalar.

<sup>39</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 77-99. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 134-151.; Шу муаллиф. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 174 б.; Ҳақимов М., Газиёва М. Прагмалингвистика асослари. Дарслик. – Фарғона, 2020. – 420 б. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2001 – В. 92. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 15-68; Shu muallif. Ўзбек болалари нутқининг прагмалингвистик хусусиятлари. – Тошкент, 2018. – 160 б.

- *Kimga? – dedi Manzura.*
- *Bilmayman...*
- Chindan ham aniq bilmaydi...*
- *Qizingiz... bir gap aytdi.*
- *Nima deydi? – O’sha odamning panjalari sal qiyshiqroq ekanmi...*
- Bu gapni eshitib Asadbekning ko‘zlari chaqnab ketdi.*
- *O‘ng panjasimi?*
- *Ha, shunaqa dedi... (T.Malik. “Shaytanat”. 1-kitob.)*

Bu dialog matnda so‘roq, maslahat, xabar, ma’lumot almashish, ikkilanish kabi nutqiy aktlar mavjud. “Uzatvoramizmi?”, “Kimga?” kabi jummalarda so‘roq akti bilan birga maslahat akti ham anglashiladi. “Ko‘zlari chaqnab” tarzida aytilgan “o‘ng panjasimi?” so‘roq aktida ushbu noverbal vosita yordamida adresantning nihoyatda g‘azablanganligi anglashiladi.

Dialogik nutq jarayonida dialog ishtirokchilari bir-birlarining harakatlarining ma’nosini tushunishga, vaziyatni boshqarishga harakat qilishadi. Shundan kelib chiqqan holda nutqda aynan vaziyatning o‘zi va suhbatdoshlarning rollari yangilanadi. Bu faoliyat davomida insonlar turli til birliklaridan foydalangan holda fikr uzatadi yoki qabul qiladi, bu fikrlarga munosabat bildiradi. Buning uchun dastlab suhbatdoshning fikrini jalb qilish kerak bo‘ladi. Bunda ular murojaatdan foydalanadilar. Murojaat, tilshunos olim Z.A.Akbarova fikriga ko‘ra, tinglovchini xabar – ma’lumot olishga tayyorlash, uning e’tiborini tortish demakdir<sup>40</sup>. Dialog qahramonlarini olmoshlar (men, siz, biz, siz), otlar – tegishli ismlar (Botir, Feruza, Nodir) yoki umumiy ismlar (azizim, bolam, opoqi) bilan belgilanib, replikada aniq yoki yashirin shaklda mavjud bo‘ladi. Adresat bu jarayonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat bilan belgilanadi. Murojaat adresant uchun adresat bilan kontakt o‘rnatish vositasi hisoblanadi. Shuningdek, u diqqatni jalb qilish, aloqani saqlab turish, kommunikativ ta’sir qilish, suhbatga qiziqtirish, chalg‘itish, ishontirish kabi funksiyalarni bajarishi ham mumkin. Murojaat kundalik faoliyatimizda keng qo‘llanuvchi til birligidir. Adresatga murojaat qilish o‘ziga xos kommunikativ-pragmatik aspektga ega, murojaatlar nutqda faoliyat yuritib, matnning pragmatik ko‘rsatmasini kuchaytirishi yoxud to‘la yo‘lga qo‘yishi mumkin bo‘ladi. Ular so‘zlovchi maqsadini namoyish qiluvchi illokutiv kuchga ega<sup>41</sup>.

Dialogda ekspressiv murojaat shakllari juda xilma-xil va ko‘p qirrali. Ekspressiv murojaat shakllari yordamida adresant suhbatdoshga ta’sir qilishi, o‘z ichki kechinmalarini unga yetkazishi yoki umumiy dialog fonini yaratishi mumkin. Mavzuga oid manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ushbu murojaat shakllarining yuzaga kelishi so‘zlovchining umumiy-psixologik xususiyatlariga bog‘liq. Ekspressiv murojaatning hosil bo‘lishida xarakter, emotsional kayfiyat, iroda kabi psixologik omillar ishtirok etadi deb ayta olamiz. Pragmatik nuqtai nazaridan ekspressiv murojaat shakllarini yuzaga keltirish jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi: adresat adresantning xususiyatlarini bilishi, bu xususiyatlarini o‘zi uchun belgilash va

<sup>40</sup> Akbarova Z. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фанлари номз. дисс. –Т., 2007. – Б.18.

<sup>41</sup>Қодирова М. Турли тизимли тилларда мурожаатнинг коммуникатив-прагматик аспекти. – Филол.фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. – Термиз, 2021. – Б. 34.

bu xususiyatlarga munosabat bildirish. Agar ekspressiv murojaat shakllari shu uch bosqichda amalga oshirilsa, adresant ushbu muloqot orqali o'z ko'zlagan niyatiga yetishda birinchi qadamni tashlagan bo'ladi. Ekspressiv murojaat shakllarini tanlashda vaziyat, joy hamda muloqotdagi rasmiy yoki norasmiylik darajasi muhim rol o'ynaydi.

Badiiy asarlarda asar xalqchilligini, haqqoniyligini ta'minlashda, qahramonlar nutqini boyitish, emotsional-ekspressivlikka erishish maqsadida maqollardan keng foydalaniladi. Har bir til vositasi muloqot jarayonida qo'llanilar ekan, u ma'lum pragmatik mohiyatga ega bo'lib, maqsadga erishish uchun nutqda voqelanadi. Maqollarni ham til vositasi sifatida nutqiy aktlarda qo'llash ma'lum maqsad ro'yobi uchun – ta'sirli, mazmundor nutq tuzish uchun xizmat qiladi. Maqollarning yana shunday o'ziga xos jihati borki, nutqiy akti yuzaga chiqaruvchi bosh omil ham bo'lishi mumkin, ya'ni nutqiy akt mazmunini shakllantiruvchi asosiy “yuk” maqolga qo'yilishi mumkin. Xuddi shuningdek, maqol ifodalagan mazmun orqali nutqiy akt turlari yuzaga keladi<sup>42</sup>.

– *Bizni chalg'itmoqchi, bo'lgan demoqchimisiz?*

– *Chalg'itish bir masala, ikkinchi masala – bizning odamga qarmoq tashlagan. Undan shubhalanishgan bo'lsa-chi? Biz o'sha qabristonni bossak, shubhalari tasdiqlanadi. Ana unda odamimizni ayab o'tirishmaydi.*

– *Bu turgan gap. Ponani pona bilan chiqaradi, degan gap bor. Agar ular bizni chalg'itmoqchi bo'lsa, biz ham shunday qilaylik.* (T.Malik. “Shaytanat”. 3-kitob.)

Maqol maslahat mazmunini ifodalab, maslahat mazmunli dialog matnini yuzaga keltirgan.

Maqollarning badiiy asarlarda qahramonlar nutqida qo'llanilishi kuchli uslubiy ma'no anglatish xususiyatiga egadir. Badiiy matnlarda qahramonlarning ijtimoiy rollari, ularning psixologik holatlaridan kelib chiqilgan holda maqollarga murojaat qilinadi. Ular ko'pincha so'zlovchining nasihat, do'q, darg'azablik, kinoya, ta'kid, ishonch, taassurot qo'zg'ash kabi his-tuyg'u hamda munosabatlari bilan bog'liq uslubiy ma'nolarni ham anglatib kelishi mumkin<sup>43</sup>.

*Jalil bir oz yumshoqroq gapirib, uning ko'nglini ovlash niyatida dedi:*

– *Kattaga katta dard yopishadi, gapir, o'zingni qiynama.*

– *Katta dard deysanmi?.. Bilmadim... Shu paytgacha menga birov qo'l ko'tarmagan edi.*

– *Dunyoni bekorga charxpalak deyishmagan. Zamon o'zgarib turadi, shunga aqling yetmabmidi?*

– *Yetgan edi, lekin...*

– *Yetgan bo'lsa, vaqtida etakni yop. Vaqtida ketsang – olam guliston.* (T.Malik. “Shaytanat”.1-kitob.)

“Kattaga katta dard yopishadi” maqoli yozuvchi tomonidan maqsadli ravishda ishlatilgan bo'lib, asar bosh qahramonlaridan Asadbekning qiyin yoki muammoli ahvolga tushib qolganligini anglatish uchun ishlatilgan. Bunda birgina maqol orqali

<sup>42</sup> Ахроров А. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопрагматик хусусиятлари. – Тошкент, 2020. – Б. 70.

<sup>43</sup> Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари. филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – Б. 5.

kitobxon oldida butun bir vaziyat oydinlashadi. Yozuvchi matn mazmunidan anglashilib turgan voqelikni ixcham, ta'sirli va yopiq holatda ifodalaydi. Bu birgina ibora orqali yozuvchi Asadbekning qiyin ahvolda qolganligini ifodalashdan tashqari uning nega shu ahvolga tushib qolganligini ham kitobxonga bildirib qo'yadi ya'ni o'quvchi ushbu vaziyatning kelib chiqish sabablarini ham yaxshi anglab oladi. Suhbat davomida Asadbekning ishlari yaxshi oqibatlariga olib kelmasligini to'g'ridan to'g'ri emas balki birgina "etakni yop" mazmunidagi maqoldan foydalanish orqali ifodalaydi. Bu maqol asli "Kishi aybiga etakni yop" tarzida bo'lib asarda u qisqargan, xalq orasidagi varianti bilan qo'llangan. Ushbu dialogdagi maqollar maslahat va taskin mazmunida qo'llanilgan.

Asar qahramonlari nutqida maqollar so'zlovchi niyatlarini obrazli ifodalab, suhbatda jonlilik, tabiiylik, mantiqiylikni keltirib chiqaradi. Masalan, o'zbek tilida "Yo'g'on cho'zilar, Ingichka uzilar" degan maqol bor. U vaqt o'tar ma'nosini bildiradi. Shu maqol ham qahramonlar nutqida har xil o'zgarishlarga uchrab qo'llaniladi, ammo maqolning asosiy mazmuni saqlanadi. Faqat ma'lum qo'shimcha ma'no ottenkalari (nozikliklari) qo'shiladi. Masalan:

– *Sen bola meni masxara qilma. Men yarim yil namoz o'qib, erta-indin o'lib beradigan ahmoq emasman. Xudo xohlasa, yuzga kirish niyatim bor. Hassaga suyanib, munkillab yurganingda bir kulayin...*

– *O'zing munkaymaysanmi?*

– *Yo'q, mening suyagim mehnatda qotgan. Maishatni zo'r qilgan odam tez munkayadi. Kam yeb, sabr qilib yurgan odam qariganida ham baquvvat bo'larkan.*

– *Qariguncha yo'g'on ingichkalashib, ingichka uzilarkan...* (T.Malik. "Shaytanat". 2-kitob.)

Hazil asosiga qurilgan ushbu bahs dialogida qo'llangan maqol ogohlantirish mazmunida bo'lib, vaqt o'tadi "sen ham qariysan" degan mazmuni ifodalagan.

Maqollar nutq jarayonida yoki yozuvchilar asarlarida o'zgargan holatlarda kelishi mumkin. Maqol gaplar kontekst bilan grammatik jihatdan ko'p hollarda bog'lanmasligi mumkin. Kontekstga qarab o'z qurilishini o'zgartirmaydi. Biroq kontekstning stilistik jihatdan ta'sirchanligini oshirishga yordam beradi<sup>44</sup>. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, maqol qahramonlar nutqida turli xil o'zgarishlarga uchrab qo'llangan. U asl holida ham, tarkibiga turli qo'shimcha so'zlar kiritib ham, tarkibidagi so'zlar turli grammatik shakllarga solinib ham, maqol gap tarkibiga singdirilib ham qo'llanilgan. Ular ogohlantirish, kinoya, iztirobli qalb ezilishi, ya'ni so'zlovchining qat'iyatsizligidan o'kinishi, qat'iy ogohlantirishli buyurish, o'zini oqlash ma'nolarini anglatib keladi.

## XULOSA

O'zbek badiiy matnlarida dialogik nutqning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish quyidagicha xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi:

1. Muloqot murakkab "integratsiyalashgan" hodisa bo'lib, adresant va adresatning muloqot jarayonidagi verbal va noverbal birliklar orqali kommunikativ

<sup>44</sup>Абдирахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Т: Фан, 1971. – Б. 10.

munosabati muloqotni shakllantiruvchi muhim omildir.

2. Ko'pchilik olimlar tomonidan muloqot vazifalari turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, haqiqiy muloqot aktida barcha vazifalar o'zaro bog'liqdir, barcha holatlarda muloqot o'zaro ta'sir jarayonidir – degan fikrga qo'shiladilar. Muloqot ko'p jihatdan shaxsning ma'naviy boyligiga, shuningdek, shaxsning ma'naviy jihatdan komilligiga, obro'si xushmuomalaligi, qabul qiluvchiga nisbatan yaxshi niyat, ochiqlik, do'stona munosabat va shu kabi shaxsiy fazilatlarga bog'liq.

3. Muloqotda ma'noni tushunish eng asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Ma'no nafaqat so'zda, balki harakatlarda, mimikalarda, imo-ishoralarda ham izlanadi. Noverbal vositalar nutqiy muloqot jarayonida nutqqa qorishib, unga emotsional ko'rinish, ekspressiv jon kiritish uchun xizmat qiladi.

4. Dialog – bu nutqiy aktlar almashinuvidir, hamda u insonning jonli muloqoti muhitida vujudga keladi va ishlaydi. Nutqning nisbatan mustaqil shakli bo'lgan dialogik nutq juda murakkab tuzilishga ega bo'lgan kommunikativ faoliyatning o'ziga xos turidir.

5. Badiiy dialog va so'zlashuv dialogi o'rtasidagi farqlar ushbu dialog mavjud bo'lgan makondagi muloqot turlarining farqlari bilan belgilanadi: Badiiy dialog badiiy dunyo makonidagi muallif tomonidan uydirma og'zaki muloqot sohasiga; so'zlashuv dialogi – real dunyo makonida og'zaki muloqot maydoniga ega bo'ladi.

6. Badiiy asarlarda dialog suhbat, qahramonlarning fikr almashish vositasi bo'libgina qolmasdan, badiiy asar kompozitsiyasi va syujetida muhim tarkibiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa, asar qahramonlari dunyoqarashini aks ettiruvchi hamda kitobxonda ularga nisbatan salbiy yoki ijobiy baholashni yuzaga keltiruvchi matn qismidir.

7. Badiiy asardagi personajlar dialoglari badiiy adabiyot maydonida, muallif tasavvuri bilan yaratilgan badiiy olam makonida bo'lsa-da, bunday dialoglar replikalarining niyatlari ortida muallifning o'quvchiga ta'sir qilish singari niyati yashirin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, personajlarning har bir nutq harakatidagi niyatlari muallifning umumiy maqsadiga bo'ysunadi.

8. Muloqot samarasi ko'p jihatdan kommunikativ strategiya va taktikaning to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Kommunikativ strategiya va taktika muloqotning qanday kechishini oldindan belgilab beruvchi nutqiy harakatlar majmuyi va uni amalga oshirishda tanlanadigan yo'ldir. Kommunikativ strategiya nutqiy muloqotda muayyan maqsadga erishish uchun oldindan tuziladigan reja.

9. Murojaat adresant uchun adresat bilan kontakt o'rnatish vositasi hisoblanadi. Shuningdek, u diqqatni jalb qilish, muloqotni saqlab turish, kommunikativ ta'sir qilish, suhbatga qiziqtirish, chalg'itish, ishontirish kabi vazifalarni bajarishi mumkin. Murojaatlarning vazifaviy xususiyatlari nutqning kommunikativ-pragmatik yo'nalishi bilan tartibga solinadi va suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarning baholash xususiyatlarini ifodalovchi pragmatik ma'noga ega bo'ladi.

10. Har bir til vositasi muloqot jarayonida qo'llanilar ekan, u ma'lum pragmatik mohiyatga ega bo'lib, maqsadga erishish uchun nutqda voqelanadi. Maqollarni ham til vositasi sifatida ma'lum maqsad ro'yobi uchun, tayyor "material" sifatida nutqiy aktlarda qo'llash ma'lum maqsad ro'yobi uchun – ta'sirli,

mazmundor nutq tuzish uchun xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04**

---

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ЭШКУРБОНОВА АЗИЗА БОЗОР КИЗИ**

**ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ В  
УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ**

**10.00.01 – Узбекский язык**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
на соискание ученой степени доктора философии (PhD)**

**Термез – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № В2023.4.PhD/Fil4047

Диссертация выполнена в Термезском Государственном Университете

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) и размещен на веб-странице Научного совета ([www.tersu.uz](http://www.tersu.uz)) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNET" ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** Бекпулат Умуркулов  
Доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Муминов Сиддикжон Мирсобирович  
доктор филологических наук, профессор

Таджиева Гулбахор Намозовна  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Самаркандский государственный университет

Защита диссертации состоится «10» 03 2025 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04 при Термезском государственном университете (Адрес: 190111, г. Термез, улица Баркамол Авлод, д. 43. Тел.: (99876) 221-74-55. Факс: (+99876) 221-71-17 веб-сайт: [www.tersu.uz](http://www.tersu.uz); e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрированной под номером 179). Адрес: 190111, г. Термез, улица Баркамол Авлод, д. 43. Тел.: (99876) 224-15-82. Факс: (376) 221-74-55, 221-71-17; веб-сайт: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «26» 02 2025 года  
(реестр протокола рассылки № 58 от «26» 02 2025 года).



*Ш.Т.Махмаранмова*  
Председатель Научного совета  
по присуждению учёных  
степеней д.ф.н., профессор

*З.Б.Умуркулов*  
Секретарь учёного совета  
по присуждению учёных  
степеней д.ф.н. (PhD), доцент

*П.Ў.Бакиров*  
Председатель научного семинара  
научном совете по присуждению учёных  
степеней д.ф.н., профессор

## **Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике прагмалингвистика начала развиваться как отдельная отрасль с 70-х годов прошлого века. Актуальным стал анализ коммуникативных свойств текста, прагмалингвистического подхода к художественному тексту и процессу его восприятия, воплощающий широту выразительных возможностей языка. На арену вышли исследования, касающиеся процесса общения и его связи с речевой ситуацией, личностными факторами, теории речевого акта. Особое внимание стали уделять исследованиям по вопросам имплицатуры текста, модальности, оценочных категорий, пресуппозиции и значения.

В мировой лингвистике проводятся широко масштабные исследования в рамках современных направлений, таких как прагмалингвистика текста, когнитивная лингвистика, коммуникативная лингвистика, лингвистика текста, которые являются направлениями антропоцентрической лингвистики. Актуальным вопросом стало и исследование диалогической речи, которая в настоящее время считается содержательной составляющей художественного текста. Виды диалогов в художественных текстах, применение в них речевого акта и исследование вербальных и невербальных средств в диалогической речи, изучение взаимоотношений адресанта и адресата в освещении прагматических особенностей диалогической речи становятся важными вопросами при изучении текста в прагматическом аспекте.

В узбекском языкознании также расширяются масштабы исследований в новых и современных областях языкознания, основанных на достижениях и опыте мирового языкознания. В частности, анализ художественного текста с прагмалингвистической точки зрения, анализ соотношения личности, речевой ситуации, коммуникативных стратегий и тактик, оценочной категории с авторской идеей дает возможность осветить прагматические особенности языка. «В сегодняшнюю эпоху глобализации каждому народу, любому независимому государству естественно уделять первоочередное внимание вопросам обеспечения своих национальных интересов, сохранения и развития своей культуры, вековых ценностей, родного языка»<sup>1</sup>. Немаловажный вклад в развитие отрасли вносит и исследование вопросов прагматических смысловых различительных языковых средств, коммуникативно-прагматических категорий диалогической речи в узбекских художественных текстах.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана», № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного», № УП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране», №

---

<sup>1</sup>Указ Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева “О мерах по коренному повышению престижа и позиций узбекского языка как государственного”, город Ташкент, 21- октября 2019 - года.

УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 984 от 12 декабря 2019 года «Об утверждении Положения о Департаменте развития государственного языка», а также иных нормативных правовых актов, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики.** Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно–просветительском развитии информированного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В мировой лингвистике существует ряд исследований по вопросам прагмалингвистики. В то время как в европейской лингвистике теоретические вопросы прагмалингвистики освещались такими лингвистами как Т.Ван Дейк, Дж.Серл, Дж.Остин, А.Вежбицкая, а в русском языкознании И.Сусов, Е.Азнаурова, Н.Арутюнова, А.Маслова, Г.Почепцов<sup>2</sup>, то в узбекском языкознании работы А.Нурмонова, Н.Махмудова, Ш.Сафарова, М.Хакимова, С.Муминова, Ш.Искандаровой, С.Боймирзаевой, М.Курбановой, М.Эрназаровой, Д.Лутфуллаевой, Л.Рауповой, У.Рахимова, Г.Гамбарова, М.Газиевой<sup>3</sup> были посвящены трактовке общих

---

